



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Kecha Samarqand shahrining Ko'ksaroy maydonida "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" kompyuter jihozlari karvoni saf tortdi. Respublika budjeti mablag'lari hisobidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan viloyatimizga keltirilgan kompyuter jihozlari karvoni barcha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshliqlariga berildi.

Kompyuter jihozlari karvoni keldi



- Prezidentimiz tomonidan ta'lim sohasiga berilayotgan e'tibor sabab bugun maktablarimiz zamonaviy kompyuter, elektron doska va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlanyapti, - dedi viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev. - O'ylaymanki, ushbu kompyuterlar maktab o'quvchilarining zamonaviy bilim olishlariga, kelajakda zamonaviy kasblar egallashiga xizmat qiladi. - Ushbu karvonda keltirilgan kompyuter jihozlari viloyatimizdagi 135 ta maktabga tarqatiladi, - dedi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Muzaffar Hamdamov. - Shuningdek, karvonda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga elektron doska, kompyuter hamda 723 dona planshet qurilmalari ham bo'lib, ular 9 ta maktabgacha ta'lim

tashkilotlariga berildi. - Ayrim maktablarimizda ma'nan eskirgan kompyuterlar bor edi, - dedi Ishtixon tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Gulchehra Saidmurova. - Bu yangilikni eshitib, maktab direktorlari xursand bo'lishdi. Tumandagi o'nta maktabga bir jamlanmadan kompyuter jihozlari topshirildi. Darhaqiqat, har bir maktabga 11 nomdagi jihozlar, ya'ni 16 ta kompyuter, printer, konditsioner va boshqa jihozlar, maktab rahbarlari uchun ham kompyuter jamlanmasi tarqatildi. Zamonaviy kompyuter texnikalarini belgilangan joylarga yetkazib berishdan tortib, ularning o'rnatilishigacha davlat tomonidan amalga oshiriladi. **Xurshida ERNAZAROVA.**

Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot

Shirin massivida viloyatdagi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatida uchrayotgan qiyinchiliklar, ishlab chiqarishni kengaytirishdagi to'siqlar va muammolarni o'rganish maqsadida tadbirkorlar bilan uchrashuv o'tkazildi. Unda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev va O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboev ishtirok etdi.



Uchrashuvda viloyatdagi 60 ga yaqin yirik investor, eksportyor, tadbirkorlar va klaster korxonalari vakillari ishtirok etib bank kreditlari va subsidiyalar ajratilishi, soliq imtiyozlaridan foydalanish, startap g'oyalarni joriy qilish, mehmonxona binosi uchun ruxsatnoma olish, tabiiy gaz tarmog'iga ulanish, mahsulot eksportini amalga oshirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan amaliy yordam so'rab murojaat qilishdi. 15 ga yaqin takliflar bildirdi. Jumladan, Samarqand shahridagi "MARQAND REST AREA" MCHJ rahbari Zafar To'rayev Samarqand shahrida joylashgan 7 gektar yer maydonida qiymati 10 million AQSh dollari miqdorida-gi logistika markazini tashkil qilish uchun qurilish ishlarini boshlashga ruxsat berilishida amaliy yordam so'radi. Narpay tumanidagi "OQTOSH DON" AJ mas'uli Fazliddin Ziyodullayev Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi hamda Qo'shrabot tumani bo'limi sud ijro varaqalarini MIB portal das-

turiga kiritmaganligi, qarorlarni yubormaganligi, ijro ishi yuritishni tamomlamasdan, ikki oy oldin ta'qiq va hisobraqamga qo'yilgan bandni yechganligi va boshqa xatti-harakatlariga huquqiy baho berilishida yordam kerakligini aytdi. Shuningdek, muloqotda ishlab chiqarish, turizm, qishloq xo'jaligi, xususiy tibbiyot va boshqa sohalardagi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq muammo hamda takliflar tinglanib, ularning aksariyati joyida hal etildi. Qo'shimcha o'rganish va vaqt talab qiladigan ayrim masalalarning yechimi uchun muddatlar belgilandi.

Chiqindidan elektr energiyasi olinadi

Chiqindidan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi "SUS Environment Samarkand" zavodiga tamal toshi qo'yildi.



Shu munosabat bilan o'tkazilgan marosimda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev ishtirok etib, chiqindilarni qayta ishlash, undan energiya ishlab chiqarish yo'nalishidagi mazkur loyihaning energiya barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati haqida so'z yuritdi. Xitoy Xalq Respublikasining "Shanghai SUS Environment" kompaniyasi tomonidan viloyatda qattiq maishiy chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun 150 million AQSh dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb qilinmoqda. Loyiha doirasida Samarqand shahri-ning So'lim qo'rg'oni hududidan 15 gektar

yer maydon ajratilgan bo'lib, kuniga 1500 tonna chiqindini termik qayta ishlaydi va yiliga 240 million kVt elektr energiyasi ish-

lab chiqarish quvvatiga ega zavod barpo etiladi. Korxonada 150 tagacha yangi ish o'rni yaratiladi.

Нуробод вилоятимиздаги ҳудуди жиҳатидан энг катта туман ҳисобланади. 39 та маҳаллада 166 мингдан ортиқ аҳоли истиқомат қиладиган туманда ишсиэлик 4,8 фоизни ва камбағаллик 9,1 фоизни ташкил этади. Туманда саноат ишлаб чиқариш ҳажми 103,8 миллиард сўм билан вилоятдаги улуши 1 фоизни ва ўрни бўйича 14-ўринни эгаллайди. Бу эса туманда саноат, ишлаб чиқариш, бандликни таъминлаш ва тadbirkorlikни ривожлантириш учун имкониятлар етарли эмаслигини англатади.

Президентимизнинг 2024 йил 20 декабрдаги "Худудларда юқори иқтисодий ўсиш ва аҳоли бандлигини таъминлашнинг янги тизимини йўлга қўйиш ҳамда бу борада маҳаллий ҳокимликларнинг роли ва масъулиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони қабул қилинганди. Фармонга асосан 2025 йилда "Зарбдор тажрибаси" асосида саноат, хизмат кўрсатиш ва қишлоқ хўжалиги соҳаларида "драйвер" лойиҳалар шакллантирилиб, мазкур лойиҳаларни амалга ошириш учун инфратузилма объектларини қуриш ва таъмирлаш ҳамда ободонлаштириш ишлари бўйича тасдиқланган

Лойиҳалар амалга ошмади



Баҳона тажрибасизликми?

таклифлар, манзилли рўйхатлар туман (шаҳар) кенгашига маъқуллаш учун киритилган. Халқ депутатлари Нуробод тумани Кенгашининг 2025 йил 6 мартдаги қарори ҳамда туман ҳокимлигининг таклифига асосан 1-босқичда 4 та лойиҳа учун республика бюджетидан 3,4 миллиард сўм маблағ ажратилган. Жумладан, туманнинг Нурбулоқ шаҳарчасида бўш турган, қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган 2,8 гектар ер майдонини зарур инфратузилма билан таъминлаш ва лотларга бўлган ҳолда аукцион савдоларига чиқариш орқали саноат маркази ташкил этиш кўзда тутилган. Бунинг учун 300 метр электр тармоғи тортиш (36 миллион сўм), 1 та ТП ўрнатиш (40 миллион

сўм), 300 метр йўлни асфальтлаш (100 миллион сўм), 1 та тик қудуқ ўрнатиш (150 миллион сўм), 1 та сув иншооти қуриш (300 миллион сўм), 500 метр ичимлик суви тармоғи тортиш (50 миллион сўм) белгиланган. "Зарбдор тажрибаси" асосидаги ушбу драйвер лойиҳага республика бюджетидан 676 миллион сўм маблағ ажратилган. 2025 йил декабрь ойда ишга туширилиши белгиланган лойиҳа доирасида 60 та янги иш ўрни яратилиши ва бюджетга қўшимча 2,9 миллиард сўм солиқ тушуми тушиши керак эди. Бироқ лойиҳани ишга тушириш у ёқда турсин, ҳозиргача аукцион орқали сотилиши ҳам таъминланмаган. Нега? - Худудларни ривожлантириш бўйича

драйвер лойиҳаларга Нурбулоқ маҳалласидан 2,8 гектар ер майдони киритилиб, 12 та лотга бўлинган ҳолда бир ой олдин аукцион савдоларига чиқарилган, - дейди туман ҳокимининг биринчи ўринбосари Рашид Ибрагимов. - Шундан битта лотни Тошкент шаҳрида фаолият юритувчи тadbirkor Хитойдан скутер, мотоцикллар учун йиғув цехи ташкил этиш мақсадида харид қилган ва ҳозирда лойиҳалаш ишлари олиб борилмоқда. Қолган 11 та лот 3 марта аукцион савдоларига чиқарилган бўлса-да, сотилмади. Дастлаб, ушбу ерларни тумандаги ишлаб чиқарувчиларга сотиб олишни таклиф этгандик. Энди эса вилоят миқёсида тadbirkorларга шу таклифни билдириямиз. Ҳозирда ер майдони 12 та лотга бўлинган ҳолда хариталари ўша жойга илиб қўйилган ва туман ҳокимлигининг ижтимоий тармоқ саҳифаларида эълонлар бериб бораёямиз. Биз аукционда сотилиши белгиланган манзилда бўлганимизда ерлар лотларга бўлинмаган, қаровсиз тиконзорга дуч келдик. Қолаверса, ҳеч қандай стeнд қилиб илиб қўйилган харитани ҳам кўрмадик. Аксинча, йўл бўйидаги чиқиндиҳонанинг бадбўйлигидан бу ерга келган харидор ҳам узоқлашади. "Зарбдор тажрибаси" асосида ерларни аукционга чиқариш ва лойиҳаларни жойлаштириш учун йил бошида ҳаракат бошланган. Халқ депутатлари туман Кенгашининг қарори ҳам жорий йил 6 мартда чиққан бўлса, нега ерлар энди аукционга чиқарилди? Р.Ибрагимовнинг айтишича, бунга етарли тажриба бўлмагани сабаб бўлган. - Нурбулоқ шаҳарчасида 32 та санатория бор ва уларга қунига беш мингдан ортиқ даволанувчилар келиб кетади, - дейди туман ҳокимининг биринчи ўринбосари. - Санаторияларга

Фармон ва ижро

озиқ-овқат саноати ишлаб чиқаришни ташкил қилиш мақсадида ўша жой танланганди. Бу жойга коммуникация, инфратузилма яқин бўлгани учун кўп маблағ талаб қилинмаслиги сабабли танланган. Худуднинг туташ қисмида темирйўл ўтган, 300 метр масофада электр станцияси жойлашган, 200 метрда катта йўл жойлашган. Ерларни аукцион савдоларига чиқариш бўйича биринчи йил шугўллаётганимиз учун ҳужжатларни тайёрлашда катта вақтни бой бердик. Барча ҳужжатлар тайёр бўлгач, бир ой олдин ерларни савдога чиқардик. Бундан ташқари, Нурдум маҳалласида бўш турган 79 гектар лалмикор ер майдони аукционда сотилди ва эндиликда сув чиқариш ишлари бошланмоқда. Сарикул маҳалласидан ўтувчи А-378 (Самарқанд-Қарши) автомагистраль йўлининг 10 гектар ер майдонини зарур инфратузилма билан таъминлаб, йўлбўйида савдо ва хизмат кўрсатиш лойиҳаларини амалга ошириш мақсадида лот олиш, аҳоли дам олиш, савдо ва хизмат кўрсатиш объектларини ташкил этиш бўйича аукционга 8 та лот белгиланган. Худудда ўзбошимчилик билан олдиндан эгаллаб олинган ерлар қонунийлаштирилиб, шундан 4 таси ишга туширилди, қолганлари бўйича ишлар давом этмоқда. **Ўқтам ХУДОЙБЕРДИЕВ,** "Зарафшон"нинг махсус муҳбири.

VATANNI SEVMAYDIGAN KISHI BECHORADIR

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga



Samarqand - aziz va muqaddas ona yurtim, afsonalar shahri. Bu zaminda aziz-avliyolar - Shayx Abumansur Moturidiy, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' daholar yashab ijod qilgan, shuhratini olamga yoygan. Mahobatli obidalaring ta'rifida qalam o'z. Registon maydonidagi Sherdor, Tillakori, Mirzo Ulug'bek madrasalarining shukhi asrlar osha insoniyatni hayratga solmoqda.



yotbaxsh nuridan, farahbaxsh kunlaridan bahra olib yashayapmiz. Istiqlol bizga iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy jihatdan yangilanishning o'ziga xos istiqbollari ochib berdi. Tafakkurimiz kishand-banlikdan, vujudimiz esa mafkuraviy mutellikdan, e'tiqodimiz zo'rma-zo'rakilik iskanjasidan butunlay xalos bo'ldi. Buning barchasi albatta, istiqloq sharo-fatidan.



Fransiyalik siyosatchi aytganidek, Amir Temur Samarqandni siyosat markaziga aylantirgan bo'lsa, Mirzo Ulug'bek uni dunyo madaniyati markaziga aylantirdi.

Eling pok mazhabli, diyonatli, iymonli. Bobur tili bilan aytganda, «mutasharri' va mutadayyin».

Chindan, Samarqandning chor atrofi bog'. Zarafshon vodiysi bahorida gulzorlarning, yozida esa shirasi ichiga sig'may, o'rnida yorilib yotgan qovunu shirinligi tanglayni yoradigan anjir, voyish-larda munchoqday uzum, daraxt shoxlarida savlat to'kgan olma, anor, behilarning totli hidi doim kishiga orom bag'ishlab turadi. Yoz bo'ldimi, hamma yoq shirin-shakar meva-chevaga to'lib ketadi.

Mana, o'ttiz to'rt yildirki, istiqloq shukuhining ha-

Mustaqillikning 34 yilligi men uchun o'zgacha kel-di. Mehnat faoliyatimga 40 yil to'lib, bu farahbaxsh, dorilamon kunlarni ko'rib, ona-Vatanni qanchalik sevgan bo'lsam, yana shuncha kamdek.

Yaqinda Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorga asosan, eng aziz va eng ulug' bayram - Mustaqillikning 34 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbirlari "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!", degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan holda o'tkaziladi.

"Ona diyor - ranglar jilosida", "Vatan uchun yashaylik!", "Eng ulug', eng aziz" kabi an'anaviy ko'rik-tanlovlar yuqori darajada o'tkazilishi bilan har yilgidan ko'ra yanada keng nishonlanadigan bo'ldi.

Ha, bu yilgi bayram men uchun qo'shaloq bayram. Mehnat faoliyatimning 20 yildan ortig'ini baxshida etgan, va xalqparvar, yurakdan sevgan va mehriban boshqacha bo'lgan ulug' dargoh, haqqchil tashkilot - O'zbekiston kasaba uyushmalarining 120 yilligi keng nishonlanadigan yil.

Mustaqillik - bebaho, noyob ne'mat. Ammo uning qadriga goh yetapmiz, gohida yo'q. Garchand, Vatan haqida ko'p asarlar yozib, behisob satrlar qoralab, kinolarda turli qahramonlar tomonidan Vatanning qadr-qimmatini ochib berilgan bo'lsa-da, baribir ona-Vatanni dildan ta'riflashga, uni borlig'ing-

dan ham ko'proq sevishtga, joningni berishga talpinasan.

Men uchun Vatan - bu ota bobolarimiz, ajdodlarimiz yashab o'tgan muqaddas zamin! Bu muqaddas zamin uchun o'zingni fido qilish - sharaf. Mehnat faoliyatim davomida tez-tez xizmat yuzasidan safarga, ayniqsa, oxirgi 20 yil davomida yilning har choragida bir, gohida 4-5 marotaba azim Toshkentga, chorak yakuniga oid yig'ilishlarga boraman. Ammo bir-ikki kun o'tmay, kindik qonim to'kilgan ona shahrim Samarqandni, Bog'imaydonni sog'inaman.

Bolta Ortiqovning chaylasi, shirin va diltortar suhbatlar, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, kol-xoz brigadiri Rahmon Narziyevning dala shiyponi, sarhovuz, bog'dagi uzum va olmalar, issiqxonada yetishtirilgan pomidor, karam nihollari ko'chati hamda Obirahmat arig'ining tiniq va zilol suvi, novvoyxonalarda yopilgan issiq nonning hidini sog'inaman.

Ota-onam doimo "O'g'lim, yurtning, oilang, kasbing va do'staringga hech qachon xiyonat qilma", deb uqtirardi. Ularning pandu nasihatlariga amal qilib kelyapman. Shuning uchun yuzim yorug', kam bo'lganim yo'q.

Yosh o'tib, ulg'ayavergach, "Nimalar qildim, nimalarga erishdim, elga, millatga, yurtga nafim tegdimi?", degan savollarni kishi o'ziga beravera ekan. Ulug'lardan ulug' Vatanning oldida qarzing ko'pligini his qilarkanas. Muqaddas va tabarruk yurt koriga yarashga hamisha tayyorliging, shu Vatanni sevishtingning o'zi katta baxt ekan.

Iftitox RAHIMOV,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchisi.

Viloyatda mingdan ziyod avtobus oraliq bekatlari mavjud. Hududlarda ushbu bekatlarning yetishmasligi va mavjudlarining ta'mirtalab yoki qarovsiz holatdagi bir necha bor tanqidiy muhokama qilingan bo'lsa-da, bu boradagi ishlar mas'ullar tomonidan e'tiborsiz qoldirilmoqda.

Avtobuslar qo'yilgan, bekatlar yo'q

borlari ta'mirtalab, videokuzatuv moslamalari va yo'l belgilari o'rnatilmagan



Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev o'tkazgan yig'ilishda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari bo'yidagi hamda shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalaridagi avtobus bekatlarining holati aniq misollar asosida tanqid qilindi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand tumanida 25 ta, Kattaqo'rg'on shahri, Oqdaryo va Payriqda 12 tadan, Past Darg'omda 11 ta, Bulung'ur, Narpay, Urgut va Kattaqo'rg'on tumanlarida 10 tadan, Toyloqda 9 ta, Jomboy, Qo'shrabot va Paxtachida 8 tadan, Nurobodda 7 ta, Ishtixonda 6 ta avtobus oraliq bekatlarini qurish va rekonstruksiya qilish zarurati mavjud.

Bugungi kunda Samarqand shahrida brutto-shartnoma asosida moliyalashtirish tizimiga o'tkazilgan 22 ta shahar avtobus yo'nalishlariga 243 dona zamonaviy avtobus va elektrobuslar joylashtirilgan. Brutto-shartnoma tizimiga muvofiq, tashuvchilarga ish hajmi va ko'rsatilgan transport xizmatlarining sifatidan kelib chiqib, hisob-kitob qilish nazarda tutilgan. Biroq Samarqand shahri, Narpay, O'zbekiston, Firdavsiy, Panjob ko'chalarida hamda Past Darg'om tumanining Nayman ko'chasida avtobus bekatlari va yo'l belgilari yetishmaydi. Yo'lovchilarning duch kelgan joyda avtobusga chiqishi-tushishi natijasida esa

brutto-shartnoma tizimining sifat talablariga rioya etishning imkoni bo'lmayapti.

- Prezident qaroriga ko'ra, shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan bekatlarda videokuzatuv moslamalarini o'rnatish belgilangan bo'lsa-da, Jomboy va Narpay tumanlaridan tashqari birorta hududda ishlar boshlanmagan, - dedi A.Boboyev. - Shuningdek, aksariyat bekatlarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yetarlicha sharoit yo'q. Ushbu muammolarni avtomobil yo'llari hamda transport boshqarmalari mas'ullari shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda belgilangan talab asosida avtobus bekatlarini xatlovdan o'tkazib qurish, rekonstruksiya qilish hamda tez fursatda bekatlarda to'liq videokuzatuv moslamalari va yo'l belgilari o'rnatishi shart.

Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i Yunus Bobonazarovning ma'lum qilishicha, ushbu ko'chalarda 26 dona kichik hamda 17 dona katta hajmdagi avtobus bekatlari o'rnatilishi aniqlangan. Biroq katta avtobus bekatlarini o'rnatish uchun 781,66 million so'm, kichik bekatlarini o'rnatish uchun 523,9 million so'm mablag' kerak bo'ladi. Samarqand shahar hokimligi esa ushbu mablag'lar Kengash sessiyasi qarorida keyin ajratilishi mumkinligini ma'lum qilgan.

F.FAXRIDINOV.

Qiyinchilikdan quroqchilik qutqardi

Hunarli xor bo'lmas



Yosh bo'lishimga qaramasdan, hayotning ko'p qiyinchiliklarini ko'rdim. Maktabni bitirib, o'qishga topshirdim, ammo 4 ball yetmay qoldi. Turmushga chiqdim. Boshida hayotimiz yaxshi edi. Keyin muammolar tug'ildi. Hammasiga chidab, ko'nib yashadim. Baribir turmushim o'xshamadi.

Ota uyimga qaytib keldim. Avvalgidek bo'lmaskan. Chiqqan qiz chig'iridandan tashqari, deyshadiku, ota-onamga og'irlikimni solgim kelmasdi.

Ikki nafar o'g'lim bor. Ko'chaga chiqsak, bola-da, mashinaga qiziqadi. Har safar o'yinchoq olib bering, deganda sotib olishning imkonini topolmaganim uchun ich-ichimdan ezilganman, o'zimdanda xafa bo'lib ketganman. Ishsizlik, ham ota, ham ona bo'lib farzandlarni tarbiyalash va boshqa hayotiy qiyinchiliklar...

Kunlarning birida taksida xayol surib, hech narsaga e'tibor bermay ketayotgan ekanman, yonimda o'tirgan ayol nega bu holatda ekanligimni so'radi. Hammadan sir saqlab kelayotgan muammolarimni, bor dardimni opaga aytib bergandim. U ismi Rahima ekanligini, quroqchilik

bilan shug'ullanishini, istasam, meni shogirdlikka olishini aytib, uyiga taklif qildi.

Bir kuni ularnikiga bordim. Opa meni quroq kashtalar bilan bezatilgan xonada kutib oldi. Bu yerdagi manzaraning ko'rib, bir muddatga bo'lsayam muammolarni unutganday bo'ldim. Shogirdlikka tushishga qaror qildim.

Bugun Rahima opaning shogirdlaridan biriman. Har tarafkama, ham ruhiy, ham moddiy qiyinchiliklardan chiqib ketishimga sababchi bo'ldi u kishi.

Quroqchi hunarmand sifatida turli ko'rgazma va festivallarda qatnashayapman. Quroq kashta mahsulotlari bir paytlar turmushga chiqayotgan har bir qizning sepiga solingan. Bugungi kunda ham milliylikimni qadrlaydiganlar yo'q emas. Men tikayotgan mahsulotlarning asosiy



xaridorlari xorijliklar. Ular qo'l mehnatini qadrlaydi.

Quroqchilik bilan shug'ullanib, kam bo'lmadim. Oyiga o'rtacha 4-5 million so'm daromad topaman. Shukurki, bugun farzandlarim eng yaxshi bog'chalarning birida tarbiyalanyapti.

Kelgusida ustozim kabi mahoratli hunarmand bo'lib, milliy quroqchilikimiz dong'ini dunyoga yoyishga hissa qo'shishni maqsad qilganman.

Durdona FAYZULLAYEVA,
Ishtixon tumani.

Samarqand davlat o'rmon xo'jaligi viloyatdagi eng yirik tabiiy resurslarga ega tashkilotlardan biri bo'lib, 10686,4 gektar yer maydonini egallagan. Xo'jalik Samarqand, Past Darg'om, Jomboy, Toyloq, Oqdaryo va Kattaqo'rg'on tumanlarida joylashgan bo'lib, tarkibida 5 ta bo'lim faoliyat yuritmoqda.

Samarqand davlat o'rmon xo'jaligi tomonidan Toyloq tumanidagi Elpok o'rmon bo'limida tashkil etilgan press-turda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar haqida jamoatchilik va OAV vakillariga batafsil ma'lumot berildi.

Ta'kidlanishicha, hozirgi paytda o'rmon bilan qoplangan umumiy maydon 11000 gektar, 166,74 gektar maydonda ko'chatxonalar tashkil etilgan. 2024-yil uchun rejalashtirilgan 900 gektar o'rnida 993,5 gektar o'rmon o'zlashtirilgan. 2025-yil uchun 990 gektar reja belgilangan bo'lib, hozircha 271 gektar yer o'zlashtirilgan.

Shu bilan birga, yerlarni xususiy sektorga ijaraga berish jarayonlari ham olib borilmoqda. 2024-yilda 2800 gektar yer maydonini ijaraga berish belgilangan bo'lsa-da, ayni paytgacha 47 gektar yer ijaraga berilgan. 2025-yil uchun ham xuddi shunday miqdorda topshiriq belgilangan, ammo hozircha faqat 18,71 gektar yer ijaraga berilgan. Bu ko'rsatkichning pastligi, avvalo, ijaraga berilgan E-auksion elektron tizimi orqali amalga oshirilayotgan bilan bog'liq.

- Hozirgi kunda xo'jalikda 82 nafar mutaxassis faoliyat yuritmoqda, zarur texnika va ko'chatlar zaxirasi mavjud, - deydi Samarqand davlat o'rmon xo'jaligi bosh o'rmonbegi Mansur Yoqubov. - Prezidentimizning 2020-yil 6-oktabrdagi qaroriga muvofiq, 2021-2030-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida o'rmon

O'rmon faqat daraxtzor emas



xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida xo'jalikda tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Xususan, foydalanilmayotgan 904,5 gektar o'rmon fondi yerlarini samarali foydalanish maqsadida ijaraga asosida 601 nafar kambag'al oilaga taqdim etish belgilangan. Joriy yilning birinchi choragida 139 gektar yer 146 nafar ehtiyojmand oilaga ajratildi. Shuningdek, o'rmon xo'jaligida qog'oz ishlab chiqarishda foydalaniladigan Brussonetiya (qog'oz daraxti) ni ekish bo'yicha pilot loyihalarni amalga oshirilmoqda. Xitoydan olib kelingan 4200 dona ko'chat 14 gektar maydonga, jumladan, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Oqdaryo, Paxtachida va Darg'omdagi o'rmon xo'jaliklariga ekilgan. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 21 gektar maydonda 1 million 685 ming tup ko'chat va nihollar zaxirasi yaratilgan. Shuningdek, chiqindilarni samarali boshqarish maqsadida maxsus konteynerlar o'rnatilib, "Toza hudud" DUK bilan hamkorlikda chiqindilarni olib chiqish

tashkil etilgan.

Toyloq tumanidagi "Elpok" o'rmon bo'limiga aholi bandligini ta'minlash, ko'kalamzorlashtirish va dorivor o'simliklar yetishtirish maqsadida 260 gektar yer maydoni ajratilgan.

- Xo'jaligimizda 20 gektar maydonda ko'chatchilik yo'lga qo'yilgan, - deydi xo'jalik o'rmonchisi Yodgor Eshonqulov. - Katalpa, qayrag'och, dub, zarang, safura, qrim sosnasi kabi manzarali va noyob daraxtlar, shuningdek, lavanda, pavloniya, namatak kabi dorivor o'simliklar yetishtirilayapti. Kelgusi yildan boshlab 30 gektar maydonda ko'chat yetishtirish rejalashtirilgan.

Samarqand davlat o'rmon xo'jaligi faqatgina ko'kalamzorlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish, ekologik xavfsizlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim vazifalarni ham bajarmoqda.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

OGOH BO'LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

Magistral gaz quvurlarining muhofaza zonasida xavfsizlik choralarini ko'rish g'oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Oqdaryo, Nurobod, Payariq tumanlari hududi bo'ylab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta'minlovchi, yuqori bosimga ega magistrall gaz quvurlari yotqizilganligini hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizni oqohlikka chorlaymiz.

Eksploatatsiyaning normal sharoitini ta'minlash va quvurlarning shikastlanishiga (ularning har qanday o'tkazilishidan qat'i nazar) yo'l qo'ymaslik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrda "Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 651-sonli qarori talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "ShMQ-02.05.06/22" - "Magistral gaz quvurlari shaharsozlik normalari va qoidalarini"ga asosan muhofaza hududlari belgilangan. Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaz taqsimlash shoxobchalari, kran tugalari, kompressor stansiyalari, elektr kimyoviy himoyalash uskunalari (EXZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), aloqa texnologiyasi inshootlari va uzatkichlari, gaz quvurlari trassasi bo'ylab yotqizilgan yo'llar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvchi belgilar kiradi.

Quvurlarning muhofaza hududiga kiruvchi maydonlar yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilmaydi. Ular mazkur maydonda faqat magistrall gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda qishloq xo'jaligi yoki boshqa turdagi ishlarni olib borishlari mumkin. Quvurlar yotqizilgan hududda sanoat mayzolari, aholi punktlari, imoratlar, qishloq xo'jaligi korxonlari, imoratlar (turar-joy va noturarjoy binolar) qurilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrda "Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 651-sonli qarori talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "ShMQ-02.05.06/22" - "Magistral gaz quvurlari shaharsozlik normalari va qoidalarini"da tasdiqlangan me'yorlarga ko'ra, magistrall gaz quvurlari loyixalashtirishning qurilish normalari va qoidalarini bo'yicha gaz quvuridan bino yoxud inshoot-gacha bo'lgan eng kam masofaga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Quvurlarning muhofaza hududida quvurlardan me'yorida foydalanishga halaqit beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdagi ishlar taqiqlanadi. Xususan:

- har qanday qurilish ishlarini olib borish, inshootlar tiklash;

- har xil turdagi daraxt va butalarni ekish, yem-xashak, ozuqa, o'g'it va materiallarni to'plash, pichan g'amlash, ot bog'laydigan qoziqlarni joylashtirish, chorva mollarini saqlash, baliq yetishtirish uchun uchastkalar ajratish, baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlar va parrandalarni parvarishlash, jonivorlar uchun suv ichadigan hovuzlar qurish, muzni yorish va

tovush kuchaytiruvchi punktlar qopqoqlarini, lyuklarni, katod himoyasi stansiyasi, tarmoq va nazorat qiluvchi quduqlar hamda boshqa tarmoq qurilmalarini, zulf va jo'mraklarni ochish, aloqa vositalari, quvur energiya ta'minoti va telemexanikasini yoqish, o'chirish;

- belgilangan hududda turli xil chiqindi to'plamlarini yig'ish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislota eritmalarini to'kish;

- quvurlarni buzilishlardan, yon-atrof va yaqin joylashgan hududni, transportirovka qilinadigan mahsulotni avariya natijasida to'kilishdan saqlovchi, yer osti suvini o'tkazuvchi inshootlarni, qirg'oqlarni mustahkam tutuvchi qurilmalarni buzish;

- olov yoqish yoki shunga o'xshash ochiq-yopiq olov manbalarini uyushtirish;

- himoya hududlarida sun'iy havzalar va sholi ekinlarini ekish man etiladi.

Magistral gaz quvurlari himoya qoidalarining buzilishida aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra javobgarlikka tortiladi.

Muhofaza hududi:

- quvur trassasi bo'ylab xavfsizlik yer uchastkasi ko'rinishida, quvur o'qining har tomonidan 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo'ladi;

- qishloq xo'jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni quvur o'qining har tomonidan 25 metr masofada o'tadigan shartli chiziqlar bilan chegaralanadi;

- ko'p tarmoqli trassa bo'ylab chekka quvur o'qining har tomonidan 50 metr masofada o'tgan, shartli chiziqlar bilan chegaralangan yer maydoni ko'rinishidadir.

Gazdan kondensatni ajratish va saqlash uchun sig'imlar atrofida neft, kondensat va siqilgan uglevodorodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida ko'rsatilgan obyektlar maydoni chegarasida har tomonidan 50 metrdan tashqari chiziq bilan chegaralangan uchastka ko'rinishida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-



kamasining 2023-yil 9-dekabrda "Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 651-sonli qarori talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "ShMQ-02.05.06/22" - "Magistral gaz quvurlari shaharsozlik normalari va qoidalarini"ga asosan magistrall gaz tarmoqlari atrofida quvurlar diametriga mos holda muhofaza hududlari belgilangan.

Belgilangan xavfli hudud radiusi:

- diametri 300 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 100 metr;

- diametri 300 mm.dan 600 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 150 metr;

- diametri 600 mm.dan 800 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 200 metr;

- diametri 800 mm.dan 1000 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 250 metr;

- diametri 1000 mm.dan 1200 mm.gacha bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 300 metr;

- diametri 1200 mm.dan yuqori bo'lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga 350 metrni tashkil etadi.

Shuningdek, gaz taqsimlash shoxobchalari har tomondan himoya hududi (muhofaza hududida har qanday ishlarni olib borish taqiqlanadi) 150 metr qilib belgilangan.

Shuning bilan birgalikda, aholi e'ti-

borini qo'yidagilarga qaratmoqchimiz:

Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga ko'ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlar ruxsatisiz qurilib, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egalari mulk sifatida rasmiylashtirilib berilmoqda. Lekin magistrall gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, "Qizil hudud" ichida qurilgan noqonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzib tashlanishi kerak bo'ladi.

Aziz hamyurtlarimizning yer uchastkalari yoki dehqonchilik qilayotgan yer maydonlari magistrall gaz quvurlari yaqinida joylashgan bo'lsa, biror turdagi qurilish ishlarni boshlashdan oldin ushbu gaz quvurlariga xizmat ko'rsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib, ish ko'rish tavsiya etiladi. Bu bilan fuqarolarimiz o'z boshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bog'liq ortiqcha asabuzarlik va keraksiz moddiy chiqimlardan xoli bo'lishadi.

Boshqarmamiz manzili: Narpay tumani Oqtosh shahri, Muqimiy mahallasi. Telefonlar: +99866-432-41-91, +99893-172-22-47.

Qahramon FAYZULLAEV, "Zirabuloq magistrall gaz quvurlari" boshqarmasi boshlig'i. Iskandar SHUKUROV, Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi Samarqand hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

Zaynitdin
RAJAMURODOV

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyo kafedrasini professori Zaynitdin Rajamurodov 77 yoshida olamdan o'tdi.

Z.Rajamurodov 1948-yilda Kattaqo'rg'on tumani Moybuloq qishlog'ida tavallud topdi. O'rta maktabni bitirib, Samarqand qishloq xo'jalik institutiga o'qishga kirdi. 1970-yilda institutni tamomlab, ish faoliyatini Xatirchi tumanidagi "Moybuloq" jamoa xo'jaligida zootexniklikdan boshladi. Harbiy xizmatidan so'ng 1972-1976-yillarda Chorvachilik ilmiy tekshirish instituti aspiranti, 1976-1989-yillarda Qo'ychilik va echkichilik ilmiy tekshirish instituti katta ilmiy xodimi, 1989-2001-yillarda Samarqand qishloq xo'jalik instituti assistenti, dotsenti, kafedra mudiri, 2001-2013-yillarda Samarqand davlat universiteti odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyosi kafedrasini professori, 2013-2018-yillarda Samarqand davlat universiteti fiziologiya, genetika va biokimyo kafedrasini professori vazifalarida mehnat qildi. 2018-2023-yillarda Samarqand davlat universitetining odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyosi kafedrasini professori hamda universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashga raislik qilgan. Domla 2023-yildan hozirgi vaqtgacha Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyo kafedrasini professori lavozimida ishlab kelayotgandi.

Z.Rajamurodov o'zining ilmiy-pedagogik faoliyatida odam va hayvonlar fiziologiyasi sohasining ilmiy-nazariy rivojlanishiga hissa qo'shib, fiziologiya maktabining davomchisi sifatida 3 nafar fan doktori, 12 nafar fan nomzodlariga ilmiy rahbarlik qildi. Ustoz 300 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 5 ta darslik va o'quv qo'llanma va 300 dan ortiq ilmiy maqolalar chop ettirdi. "Odam va hayvonlar fiziologiyasi", "Hayvonlar fiziologiyasi", "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" fanlaridan darsliklar, o'quv adabiyotlari muallifi edi.

Olim ko'p yillik xizmatlari va fiziologiya fani taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi uchun viloyat hokimligi va boshqa jamoat tashkilotlarining faxriy yoriqlari bilan taqdirlangan. Domla universitet professor-o'qituvchilari, talabalari o'rtasida tashkilotchiligi va talabchanligi bilan obro' qozongandi.

Ajoyib inson, samimiy do'st Zaynitdin Rajamurodovning porloq xotirasi hamkasblari va shogidlari qalbida saqlanadi. Hamkasblarimizning oila a'zolari va yaqinlari qalbidan bildiramiz.

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI BOKIMYO INSTITUTI JAMOASI.



DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Azimov Ural Safarovichga (1972-yil 6-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Shodiyev Zafar Karimberdiyevichga (2023-yil 21-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Kurbanov Uzakga (2014-yil 3-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Nuradinov Abduraxmonga (2024-yil 26-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Nurbabayev Babanazarga (2018-yil 19-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahro-

va Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Gulyamirzayev Kurbonga (2012-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Bobaxonov Asrol Aslamovichga (2025-yil 31-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Meliyeva Xolchuchuk Azzamovna (2016-yil 6-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Yuldashev Abdumalik Suyunovichga (2023-yil 27-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zo'irovna notarial idorasida marhum Xalimov A'lamga (2020-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahro-

va Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Ganiyev Xalimga (2005-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Qurbanov Jo'raqulga (2013-yil 25-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Bekmuratov Qosim Allaberdiyevichga (2024-yil 9-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.

TOPGANGA MUKOFOT!
Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan 2013-yilda Xidirov Rustam Nuriddinovichga berilgan SV № 5789 raqamli pensiya guvohnomasi Ishtixon tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99899-193-79-16.

Fuqaro Mukumov Firdavsi Djurakulovichning fuqarolik pasporti (AA 2130872, 2013-yil 10-iyulda berilgan) Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99888-600-48-54.


- Асрор ака, иссиққина қулча билан чой дамлаб келдим, совимасдан нонушта қилиб олинг, - Сайёра қўлидаги патнисни бошлиқнинг ён томонидаги стол устига қўйди.

- Раҳмат, Сайёраҳон! Бундан кейин овора бўлманг, зарурат бўлса, ўзим айтаман.

Асрор Самадович тушунарлими, дегандай унга қаради.

- Ҳа энди, иш билан овора бўлиб, бундоқ бир зум тин олишни ҳам унутманг дейман-да, - Сайёра ноз

Турмуш чорраҳаларида



- Иссиққина чой дамлаб келдим, бугун кўп ишлаб юбордингиз, - деди меҳрибонлик билан.

- Сиз ҳали кетмадингизми? - Асрор ажабланиб соатига қаради. - Иш тугаганига икки соат бўлибди-ку!

- Сизни ёлғиз қолдириб кетаманми, ахир ўнг қўлингиз - катта лаборантман. Асрор зимдан унга тикилди: "Бунча чиройли?"

- Менга қаранг, - деди у дераза ёнидан ўрнига қайтар экан. - Кечирасиз, айбга буюрмайсиз, нега оилангиз билан ажрашгансиз?

Кўнгишнинг коронгаи кўчалари

карашма билан жилмайиб, Асрорга эркаланди.

Асрор Самадович бошлиқ бўлиб келгач, катта лаборант Сайёра жамоада алоҳида мавқега эга эканлигини дарҳол сезди. Ходимлар сўққабаш бу жувондан ҳадиксирашар, бошлиққа гап етказмасин деб, иложи борича ундан нарироқ юришга ҳаракат қилишарди. Асрор Самадович ўзидан олдинги бошлиқ нега ишдан олингани, жамоада маънавий муҳит нега бузилгани ҳақида эшитганди. Сайёранинг ўзига мулозаматини кўриб, нега бундай бўлганини тушунди. У жувоннинг ўзига тикилиб турган хумор кўзларига қараб гаши келди.

- Нега туриб қолдингиз, бораверинг дедимку!

- Кечиринг, - Сайёра сочларини тузатган бўлиб, ишва билан чиқиб кетди.

Асрор Самадовичнинг кўз олдига боғчага қатнайдиган ўғилчаси, иккинчи синфда ўқийдиган жингалаксоч, шўх қизалоғи, меҳрибон, интизор кутадиған, шахло кўзлари бахтиёрликдан чакнаб, табассум билан ишга кузатиб қўядиган умр йўлдоши келди. Беихтиёр уларга бўлган соғинч хисси юрагини ўртади.

Сайёранинг хушомоди кучайиб, янги бошлиқни ҳам ўз измига солишга интилиши Асрорни ҳушёр торттирди. Жувоннинг уялмасдан жамоа олдида намойишкорона ишваси Асрор Самадовични ўйлантириб қўйди.

Ўзил-кесил бир қарорга келмаса бўлмади. Миш-мишлар болалаб, рафиқаси Наргизанинг қулоғига етиб борса, оиласи бузилиб кетиши аниқ.

Бугун у ойлик ҳисоботлар билан танишиш учун бироз ушланиб қолди. Тин олиш учун дераза ёнига келди. Ғира-шира қоронғулик туша бошлабди. Шу пайт эшик очилди, Сайёра кириб келди.

Биринчиси хиёнат қиялсан, деб рашк қиларди, ҳайдаб юборди. Иккинчиси ғирт сўтак эди, ичишдан бош кўтармасди. Рўзгорда қўлга илинадиган буюм борки, сотиб ичди, ҳатто тилла тақинчоқларимни ҳам ўғирлаб, сотиб ичди... Ўзим ташлаб кетдим. Мана, эркин кушман!

- Шунақа денг, - Асрор унга тикилди. - Олдинги ишингиздан нега ҳайдалгансиз?

- Ҳайдашмаган, ёқмагани учун ўзим кетганман, - деди Сайёра қизариб.

"Бу енгилтаклиги, сохта ноз-карашмаси, ҳийла-найранглари билан қанча эркаларни йўлдан уриб, оилаларидан бездирмади экан?". Асрор жиддий тортди.

- Асрор ака, сизни кўрдим-у, ақл-хушимдан ажралай даяпман, пайти келиб яна бирор эркакни севиб қоламан, деб ўйламагандим. Нега бунча бепарвосиз? Нега бунча тошбағирсиз? Қўрмаясизми? - Сайёра энтикиб, Асрорнинг кучоғига отилишдан ўзини зўрға тийиб турарди.

- Тўхтан! Ўтиринг, ўзингизни босинг! Мен сиз ўйлаган одам эмасман. Оилам, болаларим бор. Сизни тушунаман, ҳаётда омадингиз келмабди, муҳокама қилмоқчи эмасман. Маслаҳатим, ўзингизга бошқа иш топинг, ёшсиз, гўзалсиз, ақлингизни йиғинг, ҳали ҳаётингиз изига тушиб кетади. Мана, қоғоз-ручка, ўз хоҳишингиз билан ишдан бўшаш ҳақида ариза ёзинг!

- Нима? Асрор ака...

- Ё! - Асрор жаҳл билан сенлашга ўтди.

- Нега? Айбим нима? - Сайёра хўнграб йиғлаб юборди. "Ҳамма эркак бир гўр, қармоқ ташласанг, лаққа илинади", деб у хато ўйлаган эди. Ариза ёзиб, Асрорга узатди. Асрор унинг қўлидаги аризани юлқиб олди.

- Энди тур, йўқол!

Тоғаймурод ШОМУРОДОВ.



Buyuklar haqida 100 ta dalil



Pushkin nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida shu nomda chop etilgan kitob taqdimoti o'tkazildi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi tomonidan "O'zbekiston tarixi" telekanali hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi hamkorligida 8 ta tilda tayyorlangan ushbu to'plamda dunyo tamadduniga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz haqida eng muhim ma'lumotlar jamlangan.

Tadbirda mazkur to'plamning ahamiyati, kelgusida davomli chop etilishi haqida ma'lumotlar berildi.

- Kitob kelajak avlod bolalari uchun, qolaversa, farzandlarimiz uchun qimmatli va muhim manba bo'lib xizmat qiladi, - dedi Respub-

lika Ma'naviyat va ma'rifati markazi viloyat bo'limi rahbari Xolbek Ko'bayev. - Zero, har bir millatning ravnaqi, ma'naviy boyligi uning buyuk shaxslari bilan chambarchas bog'liq. Ularning hayoti, faoliyati, fikrlari - avlodlar uchun o'rnak, yo'llanma. "Buyuklar haqida 100 ta dalil" jamlanmasi ham aynan shu jihatdan o'rnak va saboq manbaidir. Jamlanmada o'quvchi nafaqat

yurtdoshimiz sanalgan buyuk olimu fuzalolarni, balki dunyo tan olgan shaxslarning hayoti, mehnati, qiyinchiliklarga qay tarzda bardosh bergani haqida o'qiydi. Kitob insonda vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarini uyg'otadi.

Bu shunchaki ma'lumot emas, hayotini, o'zligimizni anglash imkonini beradi. Buyuk insonlar qanday fikrlagan? Qanday yashagan? Ular nima uchun ortlaridan iz qoldirgan? Ushbu savollarga javob shu kitob ichida yashiringan.

To'plamdagi tasvirlar sun'iy intellekt yordamida yaratilib, tarixiy voqealar qiziqarli tarzda aks ettirilgan, shuningdek, unda QR-havola orqali ma'lumotlarni eshitish va ko'rish imkoniyati mavjud.


O'z muxbirimiz.

SUG'DLIKLAR -

Sharq savdosining

sirli elchilari

Sug'd tilida yozilgan hujjat, xat va boshqa turdagi bitiklar Yaponiya, Xitoy, Koreya, Vetnam, Mo'g'uliston, Qirg'iziston, Rossiya, Turkmaniston, Tojikiston, Afg'oniston va Pokistondan topilgan. So'nggi yillarda bu topilmalarning soni ko'payib, qadimgi Sug'diyonaning asosiy hududini o'z ichiga olgan O'zbekistonda ham sug'd yozuvlari yozilgan tangalar, bullalar, kulolchilik idishlarining soni yildan yilga oshib bormoqda.



Hatto Yaponiyada ham sug'dlar bilan qadimda bo'lgan aloqalardan xabar beruvchi muhim ashyolar saqlangan. Nara shahridagi Xoryuji ibodatxonasida sandal yog'ochiga yozilgan sug'd yozuvi saqlangan. Bu noyob yozuv hozirda Tokio davlat muzeyida saqlanadi. Bundan tashqari, Naradagi Todajii ibodatxonasining Shosoin xazinasida imperatorga qilingan sovg'a-salomlar saqlanadi. Bu buyumlar orasida qadimda Sug'ddan olib kelinib, imperatorga tortiq qilingan noyob sovg'alar mavjud.

Qadimgi Silla davlatining poytaxti hisoblangan Kyonchju shahrida joylashgan imperator Xeungdeokka tegishli maqbara atrofida Sug'dlar tasvirlangan tosh haykallar topilgan. Bu topilmalar, Koreyaga sug'd savdogarlari borganligi va koreyaliklar sug'dlar haqida tasavvurga ega bo'lganliklaridan dalolat beradi.

Hozirgi Koreya hududida dunyoga kelgan va Tang imperiyasi poytaxti Chan'anda buddaviylik ibodatxonasida monax bo'lib xizmat qilgan Xecho Buyuk Ipak yo'lining tarixi, geografiasini o'rganishga katta hissa qo'shgan. Xecho Hindistonga ziyorat safariga yo'l oladi va ko'rgan-kechirganlarini batafsil yozib boradi. Bu kundalikda o'sha davrdagi xalqlarning urf-odatlarini, turmush tarzi, diniy qarashlari haqida muhim ma'lumotlar jamlangan.

Bu noyob qo'lyozma XX asrning boshlarida fransuz olimi

Pol Pelo tomonidan Dunxuan shahridagi Mogao g'oridan topilgan. Shu tariqa monax Xechoning noyob kundaligi insoniyatga yetib keladi. Xitoy va Sug'd aloqalari to'g'risida, bu yerdan topilgan sug'd bitiklari haqida juda ko'p yozilgan. Xitoy tarixiy yilnomalarida Sug'd haqida noyob ma'lumotlar saqlangan. Ayniqsa, 1907-yil ingliz olimi Aurel Steyn boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan Dunxuan shahrining g'arbiy qismidan topilgan sug'd xatlari katta ahamiyatga ega. Bu xatlar Dunxuan va Jinchengdagi sug'd koloniyalaridagi sug'dlar tomonidan Samarqandga jo'natilgan xatlardir. Xatlar xitoy qog'oziga yozilgan bo'lib, ayrimlari ipak gazlamasi bilan o'ralgan. Bu ipak qoldiqlari qadimiy ipak namunalariidan hisoblanadi. Xatlardagi ma'lumotlar sug'd savdo koloniyalarida yashagan muhojirlarning hayoti, o'sha davrlarda sodir bo'lgan voqealar haqida muhim xabarlar beradi. Xatlarning birida Xitoy poytaxti hisoblangan Luoyang va Yeh shaharlarining xunlar tomonidan istilo qilingani, natijada imperatorning poytaxtini tashlab chiqishga majbur bo'lgani yozilgan.

Olimlar bu voqea milodiy 311 yil sodir bo'lganligini aniqlagan. Xitoyning Uyg'ur avtonom viloyatidan ham muhim ilmiy qadimgi xatlar topilgan. Bu sug'd yozuvlari asosan Turfan shahridagi yodgorliklardan topilgan bo'lib,

ularning asosiy qismini xristianlik, moniylik va buddaviylik dinlariga mansub bo'lgan diniy matnlar tashkil etadi. Bu yerdan topilgan sug'd hujjatlari orasida diniy matnlardan tashqari, moliyaviy mazmunga ega bo'lgan hujjatlar ham uchraydi. Turfan shahridagi Astana mozor-qo'rg'onidan topilgan sug'd hujjatlaridan biri "Qul sotib olish haqidagi shartnoma"dir. Bu hujjatda samarqandlik savdogarining Xitoy monaxiga ayol kishini qul sifatida sotganligi aytilgan.

Turfanning Beziklik yodgorligidan sug'd tilida yozilgan bir hujjat topilgan edi. Bu xat moniylik diniga e'tiqod qilgan bir guruh dindorlarning moniylik dini amaldorlaridan biriga yozgan xati bo'lib chiqdi. Bu xat o'sha davr diniy muhitini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Mo'g'uliston hududida ham ko'plab sug'd yozuvlari saqlangan. Ular asosan toshlarga yozilgan sug'd bitiklaridir. Bu toshlardan biri - Turk hoqonligi davrida, ikkinchisi esa Uyg'ur hoqonligi davrida bitilgan. Hozirgi Mo'g'uliston hududidan topilgan sug'd yozuvlaridan biri Bugut bitigidir. Toshga yozilgan bu sug'd yozuvlari Turk hoqonligi va Ashina hoqonlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Mo'g'ulistondan topilgan yana bir sug'd bitigi - bu Qorabolg'asun bitigi bo'lib, unda Uyg'ur hoqonligining yettinchi hoqoni, ya'ni Bilga hoqonning harbiy zafarlari haqida ma'lumotlar beradi. Bu bitik uch tilda: sug'd, uyg'ur va xitoy tillarida yozilgan.

Shoira INDIAMINOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti.



Mazkur maqolaning davomini elektron shaklda ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 857 nusxada chop etildi. Buyurtma 342. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda